ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

6-son

(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish to‘g‘risida”gi **2025-yil 15-may, 152-son buyrug‘i 4**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida aholi uchun sanitariya-gigiena imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2025-yil 15-may, 153-son buyrug‘i 51**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2025-yil 19-may, 161-son buyrug‘i..... 55**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 20-may, 165-son buyrug‘i 62**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PF-86-son Farmoni ijrosini ta’minlash haqida”gi **2025-yil 24-may, 166-son buyrug‘i..... 64**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qarori ijrosi haqida”gi **2025-yil 12-iyun, 190-son buyrug‘i..... 66**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırının “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 16-iyun, 198-son buyrug‘i 77**

O‘zbekiston Respublikasining “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bi**la**n o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi **2025-yil 7-fevral, O‘RQ-1025-son Qonuni** 83

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora -tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son, “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarorlari ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda biznes va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha ta’lim jarayonlarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalari va tushuntirish xatlari 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan

sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 4-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 5-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 6-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 7-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 8-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 9-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 10-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 11-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning

2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 12-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 13-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishlari birlashtirilgan holda amaliyotga joriy etilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) ikki hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari o‘quv rejalarini mazkur buyruq bilan yo‘nalishlar kesimida tasdiqlangan o‘quv rejalariga muvofiq ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

4. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va pedagogik-psixologik Respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), Respublika ta’lim markazi joriy yil 1-avgustga qadar:

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari bo‘yicha taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqsin hamda yo‘nalishlarga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazsin;

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan maktablarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish hamda tegishli tavsiyalarni berib borish ishlarini amalga oshirsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab

ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

2025-2026-o‘quv yiliga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlaridan birini tanlash bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish;

so‘rovnoma natijalari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining imkoniyatlarini inobatga olib, yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ro‘yxatini Vazirlikka taqdim etish;

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan maktablarning ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazoratga olish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakunida jarayonlar bo‘yicha xulosalarni Vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb- hunar yo‘nalishlari o‘quv rejalarini bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda o‘qituvchilar o‘rtasida dars soatlarini belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hamda ta’lim muassasalari direktorlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

7. Belgilab qo‘yilsmki, tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinflardan tashqari boshqa sinflarning o‘quv jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 10-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i asosida tashkil qilinadi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish to‘g‘risida”gi 96-son buyrug‘i 2025-yil 31-avgust kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va

maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 15-may,
152-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha ta’lim jarayonlarini tashkil etish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish, zamonaviy kasblarga yo‘naltirish, o‘zlari ustida mustaqil ishlash hamda qo‘shimcha bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va bu borada ta’lim jarayonlarini tashkil etish vazifalarini belgilaydi.

2. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat umumta’lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga tatbiq qilinmaydi.

II. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarining maqsadi

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarini joriy etishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarning individual xohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish, bunda:

o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

o‘quvchilarga kasb-hunarlarni o‘rganishiga keng imkoniyatlar yaratish;

maktab davridanoq o‘quvchilarni xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

III. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish

4. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinflaridan boshlab amalga oshiriladi, 2024-2025-o‘quv yilida tanlov fanlari hamda kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etilgan sinflar 11-sinf sifatida davom ettiradi hamda 2025-2026-o‘quv yilida ushbu sinflarning yo‘nalishlarini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunda, har bir yo‘nalish bo‘yicha tashkil etilgan sinflardagi o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risi”dagi Nizomga muvofiq bo‘lishi hamda bitta yo‘nalish tashkil etilgan sinfda boshqa yo‘nalishlarni joriy etmaslik lozim.

5. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarini tashkil etishda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyati hamda yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agar tegishli yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma natijalariga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan birorta ham yo‘nalishga qiziqish bildirilmasa, yo‘nalishlar bo‘yicha sinflar tashkil etilmaydi va 10-sinf o‘quvchilari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja asosida ta’lim oladi.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan **sinflarda ta’lim jarayoni** quyidagicha amalga oshiriladi:

a) tanlov fanlari quyidagi yohialishlar bo‘yicha tashkil etiladi:

matematika - fizika;

kimyo - biologiya;

ona tili va adabiyot - chet tili;

matematika - chet tili.

Tanlov fani joriy etiladigan sinfda yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim jarayoni mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan o‘quv rejalar asosida tashkil etiladi.

b) xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarda quyidagi chet tillaridan biri ikkinchi xorijiy til sifatida tanlanadi:

ingliz tili;
koreys tili;
nemis tili;
fransuz tili;
xitoy tili;
yapon tili.

Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda ta’lim jarayoni mazkur buyruqning 3-, 4-, 5- va 6-ilovalari bilan tasdiqlangan o‘quv rejalar asosida tashkil etiladi.

d) biznes va kasb-hunar yohialishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy ta’lim hamda qo‘shimcha ravishda iqtisodiyot va biznes fani tanlanadi va bitta yo‘nalish tashkil etiladi:

biznes va kasb-hunar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarni tashkil etishda maktab o‘zining imkoniyatlari, hududiy sharoiti va ota-onalarning fikrlaridan kelib chiqib, kerakli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazadi.

O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, bir yoki ikki kasb yo‘nalishi asosida bitta sinf tashkil etilishi mumkin. Agar ikkita yo‘nalish asosida bitta sinf tashkil etilsa, ushbu sinfda o‘quvchilar soni kamida 25 nafar bo‘lishi lozim.

Biznes va kasb-hunar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy ta’lim fani ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi (iqtisodiyot va biznes fani bundan mustasno).

Biznes va kasb-hunar yo‘nalishi joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalar ro’yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Biznes va kasb-hunar yo‘nalishi joriy etiladigan sinfda ta’lim jarayoni mazkur buyruqning 7-, 8-, 9- va 10-ilovalari bilan tasdiqlangan o‘quv rejalar asosida tashkil etiladi.

Iqtisodiyot va biznes fani umumiy o‘rta, o‘rta maxsus professional va oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha joriy etilgan fanlardan dars berish huquqiga ega bo‘lgan pedagog xodimlar yoki umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Iqtisodiy bilim asoslari” fanidan dars berish bo‘yicha qayta tayyorlashdan o‘tgan pedagog xodimlar tomonidan o‘tiladi hamda amaldagi malaka toifasiga mos ravishda haq to‘laniladi.

e) biznes va kasb-hunarga o‘qitish va xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yohialishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy ta’lim, iqtisodiyot va biznes fani hamda xorijiy tillardan biri

ikkinchi xorijiy til sifatida tanlanadi.

Biznes va kasb-hunarga o‘qitish va xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinfda ta’lim jarayoni mazkur buyruqning 11-, 12-, 13- va 14-ilovalari bilan tasdiqlangan o‘quv rejalar asosida tashkil etiladi.

7. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinf yo‘nalishi 10-sinf o‘quvchilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlanadi. Yo‘nalishni aniqlash uchun o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

8. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish va natijasini umumlashtirish uchun maktabda tanlov komissiyasi tuziladi.

9. Tanlov komissiyasi tarkibiga o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbari, fan metod birlashma rahbari va ota-onalar qo‘mitasi raisi kiritiladi.

Bunda, tanlov komissiyasi a’zolari tarkibiga o‘quvchilarning ota-onalari va tegishli yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (ota-onalar qo‘mitasi raisi va fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

10. So‘rovnomani o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida ushbu jarayonlarda maktabning Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari mumkin.

11. So‘rovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan ma’lumot maktab direktoriga taqdim etiladi.

12. So‘rovnoma natijasida tegishli yo‘nalishlar joriy etiladigan sinfda o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, o‘quvchilar maktab tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov *(nazorat ishi)* natijalari asosida qabul qilinadi.

Agar maktabda sinov *(nazorat ishi)* tashkil etiladigan bo‘lsa, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh (*3-5 nafardan iborat*) tuziladi. Ishchi guruh tomonidan tanlangan yo‘nalishdagi fanlardan nazorat materiallari tayyorlanib, ularning maxfiyligi ta’minlagan holda o‘quvchilardan nazorat ishlari olinadi.

Sinovdan o‘ta olmagan o‘quvchi an’anaviy sinfda o‘qishini davom ettiradi va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun

2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja asosida ta’lim oladi.

Sinov natijalaridan norozi bo‘lgan o‘quvchilar uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga maktab direktori, tajribali fan o‘qituvchilari, psixologlar kiritiladi. Apellyatsiya komissiyasi faoliyatini maktab direktori amalga oshiradi.

13. Ota-onalar farzandlarini tanlov fanlari yoki biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari sinfiga qabul qilishi to‘g‘risida direktor nomiga ariza yozadi.

O‘quv yili davomida tegishli yo‘nalish bo‘yicha tashkil etilgan sinfdan an’anaviy sinfga yoki an’anaviy sinfdan tashkil etilgan sinfga o‘tishga ruxsat berilmaydi *(oilaviy yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘zgartirish bundan mustasno)*.

14. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan maktablardagi 10-11-sinflar “Umumta’lim muassasalari sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* muvofiq komplektlanadi. Bunda, sinflar soni 2025-2026-o‘quv yili uchun mavjud bo‘lgan umumiy 10-11-sinflar sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinf yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot tayyorlanadi.

16. Ushbu ma’lumot maktab Pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda tegishli yo‘nalish joriy etiladigan sinfga mo‘ljallangan o‘quv reja, fan o‘qituvchilari, dars taqsimoti, sinf rahbarini belgilash, o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

IV. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarida fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish

17. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinfda malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lib, o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lganda, chet tili, ta’lim tili

o‘zbek tili bo‘lmagan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘zbek tili, ta’lim tili rus tili bo‘lmagan umumta’lim muassasalarida rus tili, informatika va axborot texnologiyalari, chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya va ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitiladigan fanlar ikki guruhga bo‘lib o‘qitilishiga ruxsat etiladi.

V. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarida o‘tilmay qolgan majburiy fanlarning baholarini qo‘yish

18. Tanlov fanlarni o‘qitishda darsliklardan tashqari, qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

19. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinfda ayrim umumta’lim fanlarining dars soatlari qisqarishi evaziga amalga oshirilgan holda o‘qitiladi.

20. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinf bitiruvchilarining umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomasiga yakuniy baholar quyidagicha qo‘yiladi:

10-11-sinflarda tegishli o‘quv reja asosida tashkil etilgan sinflarda o‘tilmagan fanlarning baholari 9-sinf tayanch o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomasidan ko‘chiriladi;

21. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari joriy etiladigan sinfda o‘tilmay qolgan fanlar doirasida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar turdosh fanlar hamda fan to‘garaklarida rivojlantiriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

22. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo‘nalishlarida o‘qitiladigan sinflarni tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalari va tushuntirish xati

MATEMATIKA - FIZIKA YO‘NALISHI

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**2**	**1,5**	**3**
9	Astronomiya		0,5	**0,5**
10	Geografiya	2		**2**
11	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
IV.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
12	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**16**	**15,5**	**31**
Tanlov fanlar				
1	Algebra	6	6	**12**
2	Geometriya	4	4	**8**
3	Fizika	5	5,5	**10,5**

Jami soat	**15**	**16**	**31**
UMUMIY SOAT	**31**	**31**	**62**

Matematika-fizika yo‘nalishiga tushuntirish xati

1. Matematika-fizika yo‘nalishi 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari) dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 8 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 8 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Matematika-fizika yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

KIMYO - BIOLOGIYA YO‘NALISHI

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
9	Algebra	3	3	**6**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**2**	**2**	**4**
11	Fizika	1	0,5	**1,5**
12	Astronomiya		0,5	**0,5**
13	Geografiya	1		**1**
14	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**21**	**21**	**42**
Tanlov fanlar				
1	Kimyo	5	5	**10**
2	Biologiya	5	5	**10**
Jami soat		**10**	**10**	**20**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Kimyo-biologiya yo‘nalishiga tushuntirish xati

1. Kimyo-biologiya yo‘nalishi 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari) dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” va “Geografiya” fanlaridan 1 soatdan jami 6 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” fanidan 1,5 soat va “Astronomiya” fanidan 0,5 soat jami 6 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Kimyo-biologiya yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

ONA TILI VA ADABIYOT - CHET TILI YO‘NALISHI

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**2**	**2**	**4**
1	Rus tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
2	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
3	Jahon tarixi	1	1	**2**
4	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
5	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
6	Algebra	3	3	**6**
7	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**3**	**3**	**6**
8	Fizika	1	1,5	**2,5**
9	Astronomiya		0,5	**0,5**
10	Geografiya	2		**2**
11	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
12	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**16**	**16**	**32**
Tanlov fanlar				
1	Ona tili	4	4	**8**
2	Adabiyot	5	5	**10**
3	Chet tili	6	6	**12**
Jami soat		**15**	**15**	**30**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ona til va adabiyot - chet tili yo‘nalishiga tushuntirish xati

1. Ona til va adabiyot - chet tili yo‘nalishi 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan va “Fizika” fanidan 1 soat jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Ona til va adabiyot - chet tili yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

MATEMATIKA - CHET TILI YO‘NALISHI

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**6**	**6**	**12**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
4	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
5	Jahon tarixi	1	1	**2**
6	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
7	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**3**	**3**	**6**
8	Fizika	1	1,5	**2,5**
9	Astronomiya		0,5	**0,5**
10	Geografiya	2		**2**
11	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
IV.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
12	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**15**	**15**	**30**
Tanlov fanlar				
1	Algebra	6	6	**12**
2	Geometriya	4	4	**8**
3	Chet tili	6	6	**12**
Jami soat		**16**	**16**	**32**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Matematika - chet tili yo‘nalishiga tushuntirish xati

1. Matematika - chet tili yo‘nalishi 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan va “Fizika” fanidan 1 soat jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun, 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Matematika - chet tili yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
9	Algebra	3	3	**6**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**8**	**8**	**16**
11	Fizika	2	2	**4**
12	Astronomiya		1	**1**
13	Kimyo	2	2	**4**
14	Biologiya	2	2	**4**
15	Geografiya	2		**2**
16	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**27**	**27**	**54**
Tanlov fanlar				

1	Ingliz tili	4	4	**8**
2	Koreys tili	4	4	**8**
3	Nemis tili	4	4	**8**
4	Fransuz tili	4	4	**8**
5	Xitoy tili	4	4	**8**
6	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**4**	**4**	**8**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. 10-11-sinflarda tanlov fanlari ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari hisoblanadi va ikkinchi xorijiy tili sifatida bitta til tanlanadi hamda haftasiga 4 soat o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami **4 soat olinib**, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami **4 soat olinib**, tanlov fanlariga berildi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

5. Xorijiy tillar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
4-ILOVA

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
9	Algebra	3	3	**6**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**8**	**8**	**16**
11	Fizika	2	2	**4**
12	Astronomiya		1	**1**
13	Kimyo	2	2	**4**
14	Biologiya	2	2	**4**
15	Geografiya	2		**2**
16	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**27**	**27**	**54**

Tanlov fanlar				
1	Ingliz tili	4	4	**8**
2	Koreys tili	4	4	**8**
3	Nemis tili	4	4	**8**
4	Fransuz tili	4	4	**8**
5	Xitoy tili	4	4	**8**
6	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**4**	**4**	**8**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. 10-11-sinflarda tanlov fanlari ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari hisoblanadi va ikkinchi xorijiy tili sifatida bitta til tanlanadi hamda haftasiga 4 soat o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

5. Xorijiy tillar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
5-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	1	1	**2**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Rus tili	1	1	**2**
5	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
6	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
7	Jahon tarixi	1	1	**2**
8	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
9	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
10	Algebra	3	3	**6**
11	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**8**	**8**	**16**
12	Fizika	2	2	**4**
13	Astronomiya		1	**1**
14	Kimyo	2	2	**4**
15	Biologiya	2	2	**4**
16	Geografiya	2		**2**
17	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**

18	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**27**	**27**	**54**
Tanlov fanlar				
1	Ingliz tili	4	4	**8**
2	Koreys tili	4	4	**8**
3	Nemis tili	4	4	**8**
4	Fransuz tili	4	4	**8**
5	Xitoy tili	4	4	**8**
6	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**4**	**4**	**8**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. 10-11-sinflarda tanlov fanlari ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari hisoblanadi va ikkinchi xorijiy tili sifatida bitta til tanlanadi hamda haftasiga 4 soat o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

5. Xorijiy tillar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
6-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**5**	**5**	**10**
9	Algebra	3	3	**6**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**8**	**8**	**16**
11	Fizika	2	2	**4**
12	Astronomiya		1	**1**
13	Kimyo	2	2	**4**
14	Biologiya	2	2	**4**
15	Geografiya	2		**2**
16	Tadbirkorlik asoslari		1	**1**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**

Jami soat		**27**	**27**	**54**
Tanov fanlar				
1	Ingliz tili	4	4	**8**
2	Koreys tili	4	4	**8**
3	Nemis tili	4	4	**8**
4	Fransuz tili	4	4	**8**
5	Xitoy tili	4	4	**8**
6	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**4**	**4**	**8**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. 10-11-sinflarda tanlov fanlari ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari hisoblanadi va ikkinchi xorijiy tili sifatida bitta til tanlanadi hamda haftasiga 4 soat o‘qitiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan jami 4 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

5. Xorijiy tillar yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 5-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
7-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**12**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
11	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**5**	**5**	**10**
12	Fizika	2	1,5	**3,5**
13	Astronomiya		0,5	**0,5**
14	Kimyo	2	2	**4**
15	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**3**	**3**	**6**
16	Jismoniy tarbiya	1	1	**2**
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**26**	**26**	**52**

Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
Jami soat		**5**	**5**	**10**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Geografiya” fanidan 2 soat, “Algebra”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
8-ILOVA

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**12**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
11	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**5**	**5**	**10**
12	Fizika	2	1,5	**3,5**
13	Astronomiya		0,5	**0,5**
14	Kimyo	2	2	**4**
15	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**3**	**3**	**6**
16	Jismoniy tarbiya	1	1	**2**
17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**

Jami soat		**26**	**26**	**52**
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
Jami soat		**5**	**5**	**10**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Geografiya” fanidan 2 soat, “Algebra”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
9-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	1	1	**2**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Rus tili	1	1	**2**
5	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
6	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
7	Jahon tarixi	1	1	**2**
8	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
9	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**12**
10	Algebra	2	2	**4**
11	Geometriya	2	2	**4**
12	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**5**	**5**	**10**
13	Fizika	2	1,5	**3,5**
14	Astronomiya		0,5	**0,5**
15	Kimyo	2	2	**4**
16	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**3**	**3**	**6**
17	Jismoniy tarbiya	1	1	**2**

18	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**26**	**26**	**52**
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
Jami soat		**5**	**5**	**10**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Geografiya” fanidan 2 soat, “Algebra”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
10-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**12**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
11	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**5**	**5**	**10**
12	Fizika	2	1,5	**3,5**
13	Astronomiya		0,5	**0,5**
14	Kimyo	2	2	**4**
15	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**3**	**3**	**6**
16	Jismoniy tarbiya	1	1	**2**

17	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**26**	**26**	**52**
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yonalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
Jami soat		**5**	**5**	**10**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuutirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Geografiya” fanidan 2 soat, “Algebra”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami 5 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
11-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	2	2	**4**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	Rus tili	2	2	**4**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**4**	**4**	**8**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
11	Fizika	2	1,5	**3,5**
12	Astronomiya		0,5	**0,5**
13	Kimyo	1	1	**2**
14	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
	Jami soat	**22**	**22**	**44**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yohialishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
3	Ingliz tili	4	4	**8**
4	Koreys tili	4	4	**8**
5	Nemis tili	4	4	**8**
6	Fransuz tili	4	4	**8**
7	Xitoy tili	4	4	**8**
8	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**9**	**9**	**18**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, fanlaridan 1 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya”, “Geografiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika”, “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki

guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
12-ILOVA

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**4**	**4**	**8**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
11	Fizika	2	1,5	**3,5**
12	Astronomiya		0,5	**0,5**
13	Kimyo	1	1	**2**
14	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
Jami soat		**22**	**22**	**44**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		
		10	11	Haftalik umumiy soat
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yohialishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
3	Ingliz tili	4	4	**8**
4	Koreys tili	4	4	**8**
5	Nemis tili	4	4	**8**
6	Fransuz tili	4	4	**8**
7	Xitoy tili	4	4	**8**
8	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**9**	**9**	**18**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, fanlaridan 1 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya”, “Geografiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika”, “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan, “Informatika va axborot

texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
13-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	1	1	**2**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Rus tili	1	1	**2**
5	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
6	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
7	Jahon tarixi	1	1	**2**
8	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
9	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**4**	**4**	**8**
10	Algebra	2	2	**4**
11	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
12	Fizika	2	1,5	**3,5**
13	Astronomiya		0,5	**0,5**
14	Kimyo	1	1	**2**
15	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
16	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**

Jami soat	**22**	**22**	**44**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
3	Ingliz tili	4	4	**8**
4	Koreys tili	4	4	**8**
5	Nemis tili	4	4	**8**
6	Fransuz tili	4	4	**8**
7	Xitoy tili	4	4	**8**
8	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**9**	**9**	**18**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, fanlaridan 1 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya”, “Geografiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika”, “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 15-maydagi
152-sonli buyrug‘iga
14-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasi va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
I.	**Filologiya fanlari**	**8**	**8**	**16**
1	Ona tili	1	1	**2**
2	Adabiyot	2	2	**4**
3	O‘zbek tili	3	3	**6**
4	Chet tili	2	2	**4**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
5	O‘zbekiston tarixi	1	1	**2**
6	Jahon tarixi	1	1	**2**
7	Davlat va huquq asoslari	1	1	**2**
8	Tarbiya	1	1	**2**
III.	**Aniq fanlar**	**4**	**4**	**8**
9	Algebra	2	2	**4**
10	Geometriya	2	2	**4**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**4**	**4**	**8**
11	Fizika	2	1,5	**3,5**
12	Astronomiya		0,5	**0,5**
13	Kimyo	1	1	**2**
14	Biologiya	1	1	**2**
V.	**Amaliy fanlar**	**2**	**2**	**4**
15	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	2	2	**4**
	Jami soat	**22**	**22**	**44**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Haftalik umumiy soat
		10	11	
Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari				
1	Kasbiy ta’lim	3	3	**6**
2	Iqtisodiyot va biznes	2	2	**4**
3	Ingliz tili	4	4	**8**
4	Koreys tili	4	4	**8**
5	Nemis tili	4	4	**8**
6	Fransuz tili	4	4	**8**
7	Xitoy tili	4	4	**8**
8	Yapon tili	4	4	**8**
Jami soat		**9**	**9**	**18**
UMUMIY SOAT		**31**	**31**	**62**

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishining tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari 10-11-sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

2. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, fanlaridan 1 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya”, “Geografiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Algebra”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan 1 soatdan, “Fizika”, “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, jami 9 soat olinib, tanlov fanlariga berildi.

3. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan tanlov fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar soatidan beriladi.

4. Biznes va kasb-hunarga o‘qitish hamda xorijiy tillar (ikkinchi xorijiy til) yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida aholi uchun sanitariya-gigiena imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida aholi uchun sanitariya-gigiena imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-maydagi 297-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof- muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoniga muvofiq 2025-yil 1-maydan boshlab barcha sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida “Toza qo‘llar” dasturi amalga oshirilishi;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida “Uch yulduzli yondoshuv” metodikasini joriy qilish bo‘yicha dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi 297-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror)ning 1-ilovasiga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida “Uch yulduzli yondoshuv” metodikasi bo‘yicha baholash mezonlari qarorning 2-ilovasiga muvofiq;

Suv ta’minoti mavjud bo‘lmagan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ichimlik suvi bilan ta’minlashning manzilli ro‘yxati qarorning 3-ilovasiga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining barqaror sanitariya-gigiyena infratuzilmalarini 2025-yilda rivojlantirish dasturi qarorning 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Turaxodjayev) “Toza qo‘llar”

dasturi doirasida maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - ta’lim tashkilotlari) sanitariya-gigiyena vositalari (suyuq sovun, xojatxona qog‘ozi va antiseptik) bilan ta’minlanganligini nazorat qilib borsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari quyidagilar uchun mas’ul etib belgilansin:

a) ajratilgan mablag‘lar hisobidan barcha ta’lim tashkilotlariga tasdiqlangan normativlarga asosan talab etiladigan sanitariya-gigiyena vositalari, ichimlik suvini vaqtincha saqlash vositalari, axlat qutisi va hojatxona qog‘ozini qo‘yish vositalarini elektron savdolarga qo‘yish orqali xarid qilinishini nazorat qilish hamda ta’lim tashkilotlariga manzilli yetkazib berilishini ta’minlash.

Bunda xaridlar tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

b) ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvi mavjud bo‘lmagan taqdirda, ichimlik suvini vaqtincha saqlash vositalari bilan ta’minlash hamda toza ichimlik suvi tashish xizmatlarini joriy etish.

d) ta’lim tashkilotining ehtiyojidan kelib chiqib, kerakli vositalar (axlat qutisi, hojatxona qog‘ozi qo‘yish va ichimlik suvini vaqtincha saqlash vositalari) normativ asosida o‘rnatilishini ta’minlash.

e) ta’lim tashkilotlari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalari va ichimlik suvidan to‘g‘ri va oqilona foydalanilishini nazorat qilib borish.

f) bolalar o‘rtasida shaxsiy gigiyena odatlarini shakllantirish va unga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlari amalga oshirilish zarur hollarda ko‘rsatma materiallar tayyorlash.

g) umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini xalqaro tajriba asosida suv ta’minoti, sanitariya va gigiyenaning “Uch yulduzli yondashuv” metodikasi asosida baholash tizimini yo‘lga qo‘ysin hamda har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumotlarni vazirlikka taqdim etsin.

4. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan 2025-yilda ta’lim tashkilotlarini sanitariya-gigiena vositalari hamda ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun talab etiladigan mablag‘lar yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ma’lumotlar kiritsin hamda 2026-yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda ushbu maqsadlar uchun mablag‘lar nazarda tutish choralarini ko‘rsin.

Bunda Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Turaxodjayev), Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F. Kushnazarov), Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J. Mannanov) ta’lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena vositalari (suyuq sovun, xojatxona qog‘ozi va antiseptik), ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlar hamda ularning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Moliya-iqtisod departamentiga taqdim etsin.

5. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov):

a) Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda 2025-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan manzilli ro‘yxat asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining sanitariya-gigiyena infratuzilmasini yaxshilash choralarini ko‘rib borsin.

Bunda quriladigan sanitariya-gigiyena obyektlari (hojatxona) mavjud binolar ichiga joylashtirilishi, ichimlik suvi va oqova suv tizimiga to‘liq ulanishi hamda tegishli jihozlar bilan ta’minlanishi, sanitariya-gigiyena obyektlarini bino ichiga joylashtirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda, ularni mavjud binoga ulangan holda qurilishi yuzasidan buyurtmachilarga takliflar kiritsin.

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining sanitariya-gigiyena infratuzilmalarini yaxshilash bo‘yicha manzilli dasturni geoportal ma’lumotlaridan foydalangan holda shakllantirish belgilanganligini inobatga olsin.

Bunda geoportalga ma’lumotlarning to‘g‘ri va muntazam kiritib borilishi uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari boshliqlari bir hafta muddatda qarorning 3-ilovasiga muvofiq suv ta’minoti mavjud bo‘lmagan ta’lim tashkilotlarini ichimlik suvi bilan ta’minlashning manzilli ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqib, tegishliligi bo‘yicha hududiy Iqtisodiyot va moliya boshqarmalari hamda hududiy hokimliklar bilan kelishgan holda yakuniy manzilli ro‘yxatni vazirlikka taqdim etsin.

7. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov):

bolalar o‘rtasida shaxsiy gigiyena odatlarini shakllantirish va unga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlari amalga oshirilishini nazorat qilsin;

ta’lim tashkilotlarida “Toza qo‘llar” dasturi doirasida o‘quvchi-yoshlarga zarur sanitariya-gigiyena vositalaridan to‘g‘ri foydalanish maqsadida 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab sinf soatlari mavzulariga “Tozalikka rioya qiling!”, “Tozalikka rioya qilish kasallikka chalinish xavfini kamaytiradi” kabi mavzularni kiritish choralarini ko‘rsin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) qarorning mazmun-mohiyatini vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritish choralarini ko‘rsin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 15-may,
153-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qarori ijrosini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, kreativ fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini oshirish, ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

2025-yil sentabr oyidan boshlab davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalari to‘garak sifatida tashkil etiladi;

2026-yildan boshlab har yili davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Turon kichkintoylari” teatr tanlovi o‘tkaziladi.

3. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (H.O‘rinov) Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) bilan birgalikda:

2025-yil avgust oyida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish yuzasidan o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etsin;

2025-yil 1-noyabrga qadar “Turon kichkintoylari” teatr tanlovini o‘tkazish nizomini ishlab chiqsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga:

2025-yil avgust oyida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarim tashkil etish yuzasidan o‘tkaziladigan o‘quv-amaliy seminarlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini to‘garak sifatida tashkil etish va tarbiyalanuvchilarni tanlab olish choralarini ko‘rish;

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoasining yillik repertuar va tadbirlar rejasini “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidan kelib chiqib bolalar yosh xususiyatlariga mosligini nazorat qilish;

stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazirning
birinchi o‘rinbosari **Sh. Karimov**
Toshkent sh.
2025-yil 19-may
161-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 19-maydagi
161-son buyrug‘iga
ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish to‘g‘risida
NIZOM

I. Umumiy qoidalar

Ushbu Nizom davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, kreativ fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini oshirish, estetik tarbiya berish va ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etish hamda “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini to‘garak shaklida tuzish tartibini belgilaydi.

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida” Qonunlari, ta’lim sohasida amal qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari hamda mazkur nizom asosida tashkil etiladi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalari – davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining 4-7 yoshli tarbiyalanuvchilaridan iborat ijodiy jamoalar.

Stol usti teatri – stol ustida, kichik sahnada namoyish etiladigan teatr turi;

Barmoq teatri – barmoqlarga qo‘g‘irchoqcha o‘rnatib sahnalashtiriladigan teatr turi;

Qo‘lqopli teatr – qo‘lqop ko‘rinishidagi qo‘g‘irchoqlar orqali namoyish etiladigan teatr turi;

Qo‘g‘irchoq teatri – an’anaviy qo‘g‘irchoq sahnasi, bolalar, kattalar ijrosidagi teatr turi;

Soya teatri – yorug‘lik va soyalar orqali namoyish etiladigan teatr turi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoasini shakllantirishga jalb etiladigan pedagoglar uchun bolalar bilan amaliy ishlarni tashkil etish bo‘yicha bir yilda bir marotaba o‘quv yili boshlanishidan oldin o‘quv-seminarlar tashkil etiladi.

II. Maqsad va vazifalari

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini to‘garak shaklida tuzish va stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

nutq va sahna madaniyatini shakllantirish;

bolalarning atrof-tevarak haqidagi bilimlarini kengaytirish, xususan, ularni teatr janrlari, uning tuzilishi va spektakl turlari bilan tanishtirish;

teatrlar orqali milliy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy mezonlarni singdirish;

og‘zaki nutqda to‘g‘ri talaffuz, lug‘at boyligini oshirish intonatsiya va ohangni anglashi;

mimika, imo-ishora va intonatsiya orqali his-tuyg‘u va his-tuyg‘ularni yetkazish mahoratini rivojlantirish;

diqqat, xotira, hayoliy fikrlash va tasavvur qilishni rivojlantirish;

ijobiy va salbiy qahramonlarni farqlashi, ta’riflay olishi, voqea rivojini tahlil qilishi va mustaqil fikrlashi;

kommunikativ muloqotchanlik va jamoada do‘stona faol munosabat o‘rnatish.

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini to‘garak shaklida tuzish va stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni teatrga bo‘lgan kognitiv qiziqishlarini uyg‘otish va faollashtirish;

teatr turlarining turli usullarini joriy etish (stol usti, barmoq, qo‘lqopli, qo‘g‘irchoqli va soya teatri);

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoalarini tashkil qilish;

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoasi bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidan kelib chiqib yillik repertuar va tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarini teatr jihozlari va vositalari bilan ta’minlash;

pedagoglar va bolalarni o‘zini namoyish etish hamda artistlik qobiliyatlarini, ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

III. Tashkil etish tartibi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida teatrlarning quyidagi turlari to‘garak shaklida tashkil etiladi:

Stol usti teatri – bolalar kichik sahnada qo‘g‘irchoqlar yordamida ertaklarni namoyish qilishadi. Sahna sifatida stol ustidan foydalanish mumkin, bu yerda qo‘g‘irchoqlar harakatlantiriladi.

Barmoq teatri – barmoqlarga o‘rnatilgan kichik qo‘g‘irchoqlar yordamida bolalar qisqa sahnalarni ijro etishadi.

Bu teatr turi bolalarda mayda motorika, nutq va so‘z boyligi, tasavvur va ijodkorlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, emotsional ifodani rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Qo‘lqopli teatr – qo‘lqoplar yordamida qo‘g‘irchoqlar yaratilib, bolalar ularni qo‘llarida harakatlantirib, ertaklarni mustaqil namoyish qilishadi.

Qo‘g‘irchoq teatri – klassik qo‘g‘irchoq teatrida bolalar qo‘g‘irchoqlarni qo‘llarida ushlab, sahnada harakatlantirishadi. Bu usulda maxsus chodirlar (shirmalar) yoki ekranlardan foydalaniladi.

Soya teatri – soyalar orqali ertaklar namoyish qilinadi. Bu yerda oldindan qirqib tayyorlangan shakllar, qo‘g‘irchoqlar yordamida harakatlar ko‘rsatiladi.

“Turon kichkintoylari” bolalar teatr jamoasi (keyingi o‘rinlarda – teatr jamoasi) to‘garak shaklida quyidagi tartibda tashkil etiladi:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari orasidan artistlik qobiliyati bo‘lgan, teatr va san’atga qiziqadigan bolalar tanlab olinadi;

tanlab olingan 4-7 yoshli bolalar orasidan ixtiyoriy guruhlar shakllantiriladi;

maktabgacha ta’lim tashkilotining bir nafar mas’ul pedagogi (tarbiyachi), zaruratga ko‘ra musiqa rahbari va o‘qituvchi-logoped jalb etiladi;

teatr jamoasi maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining buyrug‘i asosida tashkil etiladi;

teatr jamoasi logotipi pedagogik jamoa tomonidan ishlab chiqiladi;

teatr jamoasi faoliyati tashkilotning Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda pullik ta’lim xizmatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Teatr jamoalarining repetitsiya va mashg‘ulotlar jarayonlarini tashkil etish:

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan tasdiqlangan reja-jadval asosida har haftada ikki marta kunning ikkinchi yarmida 20-30 daqiqadan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;

buyruq asosida biriktirilgan pedagog (tarbiyachi) hamda musiqa rahbari tomonidan davlat o‘quv dasturi asosida bolalar yoshiga mos ijodiy ssenariylar tuziladi, musiqalar tanlanadi, dekoratsiyalar, qo‘g‘irchoqlar, shirmalar (ekranlar) va boshqa zarur jihozlar ro‘yxati shakllantiriladi va ta’minlash uchun tashkilot direktoriga kiritiladi;

har oyning oxirgi juma kuni teatr jamoasi tomonidan sahnalashtirilgan kichik sahna ko‘rinishlari maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun namoyish etiladi;

bolalar tanlangan teatr turlari bo‘yicha repertuar asosida qo‘g‘irchoqlar yordamida yoki o‘zlari sahnaga chiqqan holda rollar ijro etadilar;

teatr jamoasi tomonidan tashkilotning bayram tadbirlarida, ota-onalar bilan uchrashuvlarda yil davomida kamida ikki marta ijodiy chiqishi tashkil etiladi.

IV. Moliyalashtirish va moddiy ta’minot

Teatr jamoasining faoliyati maktabgacha ta’lim tashkilotining byudjetdan tashqari topilgan mablag‘lari, mahalliy hokimiyatlar, homiylar, grantlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

Kichik sahna ko‘rinishlari uchun qo‘g‘irchoqlar, sahna buyumlari, dekoratsiyalar, liboslar xarid qilinadi yoki bolalar va pedagoglar tomonidan tayyorlanadi.

V. Yakuniy qoidalar

Teatr jamoasi har o‘quv yilining sentabr oyida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilar orasidan tanlab olinadi va tashkil etiladi.

Teatr jamoasi faoliyati ustidan nazorat davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariyati hamda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik masalalari bilan shaxsan shug‘ullanishga mas’ul etib Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari T.Komilov belgilansin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining xususiylashtirish va davlat- xususiy sheriklik masalalari bilan shaxsan shug‘ullanishga mas’ul o‘rinbosari asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

- Raqobat rivojlangan va xususiy sektor kirib kelgan sohalardagi davlat mulkini sotish, shu jumladan, aktivlardan davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini keng qo‘llash orqali samarali foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- Tizimdagi aktivlardan, xususan, nosohaviy va bo‘sh turgan aktivlarni sotishga tayyorlash;

- Mehnat unumdorligini oshirish va ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini oshirish maqsadida sohani raqamlashtirish hamda vazirlik va idora faoliyatiga xususiy sektorni keng jalb etish;

- Davlat ishtirokidagi korxonalarning aksiyalarini xalqaro va milliy kapital bozorida birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etishga tayyorlash va jarayonni tashkil etish;

- Xususiylashtirish dasturlariga asosan ommaviy savdolarga chiqarilgan davlat aktivlarini salohiyatli investorlarga sotish uchun doimiy ravishda targ‘ibot ishlarini olib borish.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) ushbu buyruqqa muvofiq Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari T.Komilovning lavozim yo'riqnomalarini qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritsin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari hamda tizim tashkilotlari va muassasalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 20-may,
165-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PF-86-son Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PF-86-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-86-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan:

“Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi (keyingi o‘rinlarda - Milliy dastur) amalga oshirilishi;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tizimida Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internat (keyingi o‘rinlarda - Maktab) tashkil etilishi;

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamjamiyati (keyingi o‘rinlarda - Hamjamiyat) faoliyati yo‘lga qo‘yilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Agentlik (A.Ubbiyev):

Maktab bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma) bilan bir qatorda yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirish imkoniyatini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomini (International Baccalaureate) berish;

o‘quvchilar bilan individual ishlash tizimini joriy etish, bir nafar maslahatchi va pedagogga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni nisbatining cheklangan normativiga mutanosib ravishda 1:15 va 1:8 nisbatlar qo‘llash;

Maktabda ta’lim jarayonini variativ o‘quv rejalar asosida amalga oshirish hamda o‘quvchilarni ingliz tilidan tashqari kamida yana bitta qo‘shimcha xorijiy tilga o‘qitish;

o‘quvchilarga ilmiy-tadqiqot va innovatsion startap loyihalari hamda boshqa ijtimoiy loyihalar bo‘yicha o‘zining portfoliosini shakllantirishga ko‘mak berish;

2025-2026-o‘quv yilidan “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish, har yili respublika bo‘ylab 1 500 nafargacha xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qishga salohiyati mavjud umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining joriy 9-sinf bitiruvchilarini imtihon asosida saralab olish;

Milliy dastur doirasida saralab olingan o‘quvchilarni Agentlik tizimidagi maktablardagi Maktab maslahatchilariga biriktirish va maxsus platforma orqali 10-11-sinfda o‘qish davrida ular uchun qo‘shimcha ta’lim tashkil etish, bunda bir nafar Maktab maslahatchisiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:15 nisbatgacha belgilash;

Milliy dastur ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchilar uchun dunyoning ilg‘or oliy ta’lim tashkilotlari qabul talablaridan kelib chiqib, Agentlikning “Renessans” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida qisqa muddatli o‘quvlar tashkil etish choralarini ko‘rsin.

5. Agentlik (A.Ubbiyev):

Agentlik markaziy apparatida maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun tashkil etilgan bosh maslahatchi lavozimiga qabul qilingan xodimlarni 14 ta hududga biriktirsin;

bosh maslahatchilarga Prezident maktablarining chet ellik mutaxassislari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlarini tatbiq etsin.

6. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov), Yuridik boshqarma (Sh. Mamadiyarov), Agentlik (A.Ubbiyev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlariga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruq ijrosinining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 24-may,
166-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-maydagi 27/1-1771 -son topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida buyuraman:

1. Qaror vazir o‘rinbosarlari, markaziy apparatning barcha tarkibiy bo‘linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilot va muassasalar rahbarlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

respublikada bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar, jumladan, audiovizual va san’at asarlari, noshirlik va raqamli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni ommalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanganligi;

Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi hamda asosiy vazifalari tasdiqlanganligi;

Bolalar kontentini rivojlantirish markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) tomonidan bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev):

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Markaz vakillari va malakali mutaxassislardan iborat tarkibda tuzilgan ekspertlar guruhi tomonidan Markaz buyurtmasiga asosan ishlab chiqariladigan kontentlarning g‘oyasi, mazmun-mohiyati, badiiy saviyasini ko‘rib chiqish, loyiha va ssenariylarni saralash hamda ularni ishlab chiqarishga tavsiya etib borish;

bolalar uchun mo‘ljallangan tele- va radio mahsulotlarni ishlab chiqarish va efirga uzatish bo‘yicha har yili eng yaxshi 30 ta loyiha uchun tanlovni Markaz bilan biraglikda tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirib borsin.

4. Yuridik boshqarma (Sh.Mamadiyorov):

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratishdan olgan daromadi jami yillik daromadining kamida 80 foizini tashkil etgan yuridik shaxslar, shuningdek, Markazga soliq imtiyozlari berilishi to‘g‘risidagi qonun loyihasini o‘rnatilgan tartibda kelishib berilishini ta’minlasin;

“Bolajon” telekanalini amaldagi moliyalashtirish tartibi, huquqlari va majburiyatlari bilan birgalikda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga qabul qilib olish ishlarini amalga oshirsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F. Jamuratova) Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev), Xo‘jalik bo‘limi (A. Shernazarov), Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov) “Bolajon” telekanalining barcha moddiy-texnik bazasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qabul qilib olish choralarini ko‘rsin.

6. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova):

2025-yil 1-sentabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Barkamol avlod” bolalar maktabida, 2026-yildan boshlab esa viloyatlar va Toshkent shahar “Barkamol avlod” bolalar maktablarida bosqichma-bosqich iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish va ularning iqtidorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kreativ industriya yo‘nalishida to‘garaklar (keyingi o‘rinlarda - to‘garaklar) faoliyatini yo‘lga qo‘ysin;

Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J. Mannonov), AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov) bilan birgalikda uch hafta muddatda to‘garaklarni zamonaviy kompyuter va texnikalar bilan jihozlash uchun xaridlarni amalga oshirish to‘g‘risida buyruq loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritsin. Bunda xarid xarajatlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari hamda vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun “Barkamol avlod” bolalar maktablarining xonalarini ta’mirlash ishlarini amalga oshirsin. Bunda ta’mirlash xarajatlari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

To‘garaklarga mashg‘ulot olib borish uchun jalb etiladigan mutaxassislarning ish haqi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi inobatga olinsin. Bunda:

Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) joriy yilda tashkil etiladigan to‘garaklar soni hamda to‘garaklarga jalb etiladigan mutaxassislar soni to‘g‘risidagi ma’lumotni 2025-yil 20-iyulga qadar, kelgusi yildan boshlab har yili 15-martga qadar Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev)ga taqdim etib borsin;

Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan 2025-yil 1-avgustga qadar tegishli mablag‘lar ajratilishi uchun Raqamli texnologiyalar vazirligiga talabnoma kiritsin.

7. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va jahon savdo tashkilotlari masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O. Rahmatullayev) raqamli texnologiyalar, kontentlar yaratish bilan bog‘liq zamonaviy kasblarni egallashga ishtiyoqi baland bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, saralab olish hamda ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida “Raqamli avlod” loyihasini amalga oshirsin.

Bunda “Raqamli avlod” loyihasi doirasida har yili IT oromgoh, haftalik, musobaqa, “Raqamli avlod qizlari” tanlovi, sayyor tadbir, xakaton va boshqa tadbirlar o‘tkaziladi, shuningdek, har chorakda “Renessans” bolalar oromgohida o‘quv-seminar treninglari tashkil etiladi.

8. Markaz hamda Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) Qarorda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida talab etiladigan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisob-kitoblarni har yili 1-dekabrga qadar Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev)ga taqdim etib borsin.

9. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) Markazning asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida Markazga 2025-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida ajratilgan mablag'lar hisobidan 20 milliard so'm mablag' ajratilishini, 2026-yildan boshlab esa Markaz hamda Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan zarur mablag'larni Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutish choralarini ko'rsin.

10. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F. Jamuratova) Markazga ajratilgan mablag'larni bank hisob raqamiga o'tkazilib berilishini ta'minlasin.

11. Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Devonxona (X. Raximboyeva) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

13. Mazkur buyruqning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Vazir maslahatchisi (A. Turdiyev) belgilansin.

14. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 12-iyun,
190-son

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2025-yil 12-iyundagi 190-son buyrug'iga
ILOVA

Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Normativ-huquqiy hujjat nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik va idoralardan	Vazirlikdan
1.	Bolalar kontentini rivojlantirish markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga ko'maklashish.	1. Markazni kerakli jihozlar, texnika va materiallar, ehtiyot qismlari, dasturiy mahsulotlar, butlovchi buyumlar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'larni Markazga ajratib berish choralarini ko'rish. 2. Markaz faoliyatini samarali olib borish uchun unga har jihatdan ko'maklash.	2025-yil iyul Doimiy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz	Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F. Jamuratova). Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev)

2.	Markaz buyurtmalariga asosan yaratiladigan kontentlarning g'oyasi, mazmun-mohiyati, ijodiy-badiiy saviyasini ko'rib chiqish, loyiha va ssenariylarni saralash hamda ishlab chiqarishga tavsiya etib borish.	1. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Markaz vakillari va malakali mutaxassislardan iborat tarkibda ekspertlar guruhini tuzish, zaruratga ko'ra, uning tarkibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borish. 2. Ekspertlar guruhi faoliyatiga oid hujjatlarni qabul qilish. 3. Ekspertlar guruhi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish.	2025-yil iyun 2025-yil iyun Doimiy	Markaz, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev)
		4. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar bo'yicha bolalar, ularning ota-onalari va ekspertlarning fikr-mulohazalarini ekspertlar guruhi tomonidan muntazam o'rganib, inobatga olib borish.	Har yili reja asosida		

3.	Respublikada bolalar uchun ixtisoslashgan teleradiokanallar faoliyatini takomillashtirish hamda qo‘llab-quvvatlash.	1. “Bolajon” telekanalini moliyalashtirish tartibi, huquqlari va majburiyatlari bilan birga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga o‘tkazish bo‘yicha hujjatlami rasmiylashtirish. 2. “Bolajon” telekanalining barcha moddiy-texnik bazasini Maktabgacha va maktab vazirligiga qabul qilib olish.	— —	O‘zbekiston Milliy teleradi okompaniyasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	Yuridik boshqarma (Sh. Mamadiyorov). Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova), Xo‘jalik bo‘limi (A.Shernazarov), Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti (O.Hoshimov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev).

		3. “Bolajon” telekanali faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti hududida televizion studiyalar va pavilyonlarni tashkil etish masalasini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish.	2025-yil sentabr	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (Q.Oqilov)
4.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarida bosqichma-bosqich iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish va ularning iqtidorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kreativ industriya yo‘nalishida to‘garaklar (keyingi o‘rinlarda - to‘garaklar) faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Barkamol avlod” bolalar maktabida xonalarni ta’mirlash, jihozlash va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 2. Viloyatlar va Toshkent shahar “Barkamol avlod” bolalar maktablarida bosqichma-bosqich to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 3. To‘garaklarga jalb etilgan mutaxassislarga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 30 baravari miqdorida lavozim maoshi to‘lash.	2025-yil sentabr 2026-yildan boshlab bosqichma-bosqich Har yili 1-aprelga qadar (2025-yil uchun 1-avgustga qadar)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I.Xoldarova). Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I.Xoldarova).

		Bunda: Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) tomonidan joriy yilda tashkil etiladigan to'garaklar soni hamda to'garaklarga jalb etiladigan mutaxassislar soni to'g'risidagi ma'lumotni 2025-yil 20- iyulga qadar, kelgusi yildan boshlab har yili 15-martga qadar Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev)ga taqdim etadi; Moliya-iqtisod departamenti (I. Siradj ev) Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi (I. Xoldarova) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan tegishli			
		mablag'lar ajratilishi uchun Raqamli texnologiyalar vazirligiga talabnoma kiritadi.			

5.	“Raqamli avlod” loyihasi doirasida har yili “Raqamli avlod IT oromgohi”, “Raqamli avlod qizlari”, “Raqamli avlod IT haftaligi” va boshqa sayyor tadbir va tanlovlar, shuningdek, IT musobaqa va xakatonlar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.	1. “Raqamli avlod” loyihasi doirasida tadbir va tanlovlarning respublika bosqichini o‘tkazish. 2. “Raqamli avlod” loyihasi doirasida o‘tkazilgan tadbir va tanlovlar g‘oliblarini rivojlangan davlatlarga ta’lim sayohatiga yuborish.	Har yili reja-jadval asosida	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Markaz	Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va jahon savdo tashkilotlari masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Rahmatullayev)
6.	Zamonaviy texnologiyalar asosida bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratish yo‘nalishida kadrlar tayyorlash.	1. Ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash bo‘yicha har yili: “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan jahondagi yetakchi oliy ta’lim tashkilotlarida bakalavriat dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash uchun 5 ta kvota; Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari doirasida jahondagi yetakchi kompaniyalarda amaliyot (stajirovka) o‘tash uchun 10 ta kvota ajratish. 2. Markaz tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tanlov asosida aniqlangan shaxslarga ushbu ta’lim grantlari va imkoniyatlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	Har yili yil davomida	“El-yurt umidi” jamg‘armasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Markaz	Vazir maslahatchisi (A.Turdiyev)

7.	Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish bo'yicha soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni taqdim etish.	1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha qonun loyihasini kelishib berish. 2. Soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni qo'llash tartibiga oid Hukumat qarori loyihasini kelishib berish.	2025-yil iyun 2025-yil iyul	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz	Yuridik boshqarma (Sh. Mamadiyorov).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosini ta’minlash hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori bilan:

ta’lim tashkilotlari negizida tashkil etiladigan “Jasorat maktablari” ro‘yxati tasdiqlanganligi;

“Jasorat maktablari”da matematika, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishi;

“Jasorat maktablari” umumta’lim maktablari uchun harbiy vatanparvarlik yo‘nalishida tayanch maktab etib belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025–2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025–2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) bir hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalarini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan o‘quv rejalariga muvofiq ishlab

chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

4. “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalarini bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda o‘qituvchilar o‘rtasida dars soatlarini belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hamda ta’lim muassasalari direktorlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev hamda vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 16-iyun,
198-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 16-iyundagi
198-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlar	Haftalik umumiy soat
		5-sinf	
I.	**Asosiy fanlar**	**13**	**13**
1	Ona tili	3	**3**
2	Adabiyot	2	**2**
3	Rus tili	2	**2**
4	Tarbiya	1	**1**
5	Informatika va axborot texnologiyalari	1	**1**
6	Tabiiy fan (Science)	2	**2**
7	Musiqa madaniyati	0,5	**0,5**
8	Tasviriy san’at	0,5	**0,5**
9	Texnologiya	1	**1**
II.	**Chuqurlashtirilgan fanlar**	**16**	**16**
1	Matematika	6	6
2	Tarixdan hikoyalar	3	3
3	Chet tili	4	4
4	Jismoniy tarbiya	3	3
Jami soatlar		**29**	**29**

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Ushbu o‘quv reja ikki qism (majburiy va chuqurlashtirilgan fanlar)dan iborat.

2. Chuqurlashtirilgan fanlar uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

5-sinf “Ona tili”, “Texnologiya” fanlaridan 1 soatdan va “Musiqa madaniyati”, “Tasviriy san’at” fanlaridan 0,5 soatdan **jami 3 soat olinib,** chuqurlashtirilgan fanlar “Matematika”, “Tarixdan hikoyalar” va “Jismoniy tarbiya” fanlariga 1 soatdan **jami 3 soat** berildi.

3. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan chuqurlashtirilgan fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fan soatlaridan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 16-iyundagi
198-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim rus tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja va tushuntirish xati

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlar	Haftalik umumiy soat
		5-sinf	
I.	**Asosiy fanlar**	**13**	**13**
1	Ona tili	2	**2**
2	Adabiyot	2	**2**
3	O‘zbek tili	3	**3**
4	Tarbiya	1	**1**
5	Informatika va axborot texnologiyalari	1	**1**
6	Tabiiy fan (Science)	2	**2**
7	Musiqa madaniyati	0,5	**0,5**
8	Tasviriy san’at	0,5	**0,5**
9	Texnologiya	1	**1**
II.	**Chuqurlashtirilgan fanlar**	**16**	**16**
1	Matematika	6	6
2	Tarixdan hikoyalar	3	3
3	Chet tili	4	4
4	Jismoniy tarbiya	3	3
Jami soatlar		**29**	**29**

Ta’lim rus tilida bo‘lgan “Jasorat maktablari” uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasiga tushuntirish xati

1. Ushbu o‘quv reja ikki qism (majburiy va chuqurlashtirilgan fanlar)dan iborat.

2. Chuqurlashtirilgan fanlar uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib berildi:

5-sinf “Ona tili”, “Texnologiya” fanlaridan 1 soatdan va “Musiqa madaniyati”, “Tasviriy san’at” fanlaridan 0,5 soatdan **jami 3 soat olinib,** chuqurlashtirilgan fanlar “Matematika”, “Tarixdan hikoyalar” va “Jismoniy tarbiya” fanlariga 1 soatdan **jami 3 soat** berildi.

3. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Ikki guruhga bo‘linib o‘qitiladigan chuqurlashtirilgan fan soatlari, ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fan soatlaridan beriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

KORPORATIV MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSLARI YANADA TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 10-sentabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2024-yil 21-dekabrda ma’qullangan

Keyingi yillarda tijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, yuridik shaxslarning o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim tashkiliy-huquqiy shakllarini tugatish va korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bunda korporativ munosabatlar va yuridik shaxslarni boshqarish jarayonini takomillashtirish, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga yangi turdagi institutlarni joriy etish va ularning huquqiy maqomini belgilash, shuningdek yuridik shaxslarning eskirgan yoki kam ahamiyatli yoxud o‘z ahamiyatini yo‘qotgan tashkiliy-huquqiy shakllarini bekor qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda:

unitar korxona va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat shakllarini tugatish;

yuridik shaxslarni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish va tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish orqali qayta tashkil etishda korxonalarning huquq va majburiyatlari topshirish hujjatida aks ettirilgan yoki aks ettirilmaganligidan qat’i nazar qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsga o‘tkazilishi;

korporativ shartnoma, konsorsium va konsorsium shartnomasi kabi institutlarning huquqiy maqomini belgilash;

mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning ta’sis shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi talabni bekor qilish;

xo‘jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlarining aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorlarini huquqiy hujjatlarga muvofiq muhim fakt sifatida oshkor etish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi davlat ro‘yxa-

tidan o‘tkazilganligi, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya berilganligiga taalluqli axborotni e’lon qilish.

Ushbu Qonun xo‘jalik jamiyatlarining faoliyatini va ularni boshqarishni soddalashtirish, korporativ munosabatlarni takomillashtirish, xo‘jalik jamiyatlarining aksiyadorlari va ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishning yanada ishonchli vositalarini joriy etish, amaliyotda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qator tartib-taomillar va talablarni bekor qilish orqali korporativ munosabatlardagi byurokratiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi 152-XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990-yil, № 31 — 33, 371-modda; 1993-yil, № 5, 235-modda; 1994-yil, № 11-12, 285-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 6, 118-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 9, 510-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2023-yil, № 10, 795-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 8-moddaning 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Kollektiv mulkning hosil bo‘lishi va ko‘payib borishi mehnatkashlar kollektivlariga olingan daromadlardan davlat mol-mulkini sotib olish uchun foydalanish imkonini berish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkini kooperativlar, boshqa xo‘jalik jamiyatlari hamda shirkatlarini tuzish uchun ixtiyoriy ravishda birlashtirish bilan ta’minlanadi”;

2) 13-modda:

1-bandining birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Kollektiv korxonasining mulki ijaraga olingan mol-mulk sotib olingan yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan mol-mulk qo‘lga kiritilgan taqdirda yuzaga keladi”;

2-bandining birinchi xatboshisidagi “davlat korxonasi yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 14-modda 4-bandining uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

4) 24 va 25-moddalar chiqarib tashlansin;

5) 33-moddaning 4-bandidagi “to‘la xo‘jalik yuritish, uni” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

6) 36-moddaning birinchi qismidagi “to‘la xo‘jalik yuritish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan “Ijara to‘g‘risida”gi 427-XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 1, 45-modda; 1993-yil, № 9, 329-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 153-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova; 2023-yil, № 10, 795-modda; 2024-yil, № 3, 246-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 22-moddaning:

to‘rtinchi qismi chiqarib tashlansin;

beshinchi va oltinchi qismlari tegishincha to‘rtinchi va beshinchi qismlar deb hisoblansin;

2) 23-moddaning:

ikkinchi va uchinchi qismlari chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi qismi ikkinchi qism deb hisoblansin;

3) 25-modda chiqarib tashlansin.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Garov to‘g‘risida”gi 736-XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan 614-I-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 96-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 156-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 10, 671-modda; 2020-yil, № 1, 3-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 11, 1062-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 8-moddaning:

oltinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat mulkida bo‘lgan mulk garovi to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Bunda xususiylashtirilmaydigan davlat mulkini, shuningdek davlat tashkilotini xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran va ushbu jarayon yakunlanguniga qadar mazkur davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida biriktirilgan davlat mulkini garovga berishga yo‘l qo‘yilmaydi”;

yettinchi qismi chiqarib tashlansin;

sakkizinchi — o‘n birinchi qismlari tegishincha yettinchi — o‘ninchi qismlar deb hisoblansin;

sakkizinchi qismidagi “to‘liq xo‘jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruvi” degan so‘zlar “bevosita boshqaruv” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 13-moddaning ikkinchi qismidagi “yo xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 16-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Garovga qo‘yilgan mol-mulkka mulk huquqi garovga qo‘yuvchidan ushbu mol-mulkni haq olib yoki haq olmasdan boshqa shaxsga berish natijasida yoxud universal huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda garov huquqi o‘z kuchida qoladi, bundan muomaladagi tovarlarning garovi hamda garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi garovni saqlamagan holda boshqa shaxsga o‘tishiga garovga oluvchi rozilik bildirgan hollar mustasno”;

4) 42-moddaning to‘rtinchi qismidagi “xo‘jalik yuritishiga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi 846-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 5, 230-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 640-modda; 2010-yil, № 9, 337-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 12, 880-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda) 1-moddasining ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat uy-joy fondi mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy-joy fondi hamda davlat organlari, muassasalari va tashkilotlarining operativ boshqaruvidagi uy-joy fondidir”.

5-modda. 1993-yil 7-mayda qabul qilingan 863-XII-sonli O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 6, 247-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 3, 38-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 7, 350-modda; 2012-yil, № 9/2, 246-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda; 2021-yil, № 4, 293-modda, 4-songa ilova; 2023-yil, № 11, 923-modda) 80-moddasining uchinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil,

№ 3, 6-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, № 11, 1066-modda; 2022-yil, № 1, 1, 2-moddalar, № 2, 80, 81-moddalar, № 3, 215, 216-moddalar, №

4, 337-modda, № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar, № 8, 787-modda, № 10, 981, 984-moddalar, № 12, 1188-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185, 188, 189-moddalar, № 4, 265, 266, 268-moddalar, № 5, 319, 320-moddalar, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-moddalar, № 8, 634-modda, № 10, 798-modda, № 11, 921, 923, 924-moddalar, № 12, 1004-modda; 2024-yil, № 1, 5, 7, 8, 9-moddalar, № 2, 102, 111, 115, 116-moddalar, № 3, 243, 245-moddalar, № 6, 530, 532-moddalar, № 7, 629-modda, № 8, 826, 829, 831-moddalar) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 178-modda o‘ninchi qismining dispozitsiyasidagi “unitar korxonalari yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 216-moddaning dispozitsiyasidagi “Davlat korxonalari va boshqa obyektlar” degan so‘zlar “Davlat aktivlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 163-I-sonli va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan 256-I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova, № 11-12; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 9, 229-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 182-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda, № 9, 494, 498-moddalar; 2007-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 4, 156, 164-moddalar, № 8, 367-modda, № 9, 416-modda, № 12, 598, 608-moddalar; 2008-yil, № 4, 192-modda, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2010-yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011-yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012-yil, № 4, 106, 109-moddalar, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda, № 12, 773-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 3, 161, 166-moddalar, № 5, 267-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880, 886-moddalar; 2020-yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 217, 218-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 464-modda, № 6, 570, 577-moddalar, № 11, 1061, 1062-moddalar; 2023-yil, № 10, 795-modda, № 11, 921-modda; 2024-yil, № 2,

111, 114-moddalar, № 6, 530-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) 39-moddaning birinchi qismidagi “xo‘jalik yuritishida” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 40-moddaning ikkinchi qismidagi “unitar korxona” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 42-moddaning ikkinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

4) 43-moddaning to‘rtinchi qismidagi “unitar korxonalarning, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa tijoratchi tashkilotlarning” degan so‘zlar “qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilotlarning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 46-moddaning birinchi qismidagi “Tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar, unitar korxonalarning nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa — boshqa tijoratchi tashkilotlarning” degan so‘zlar “Tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar, qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilotlarning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6) 48-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlanadigan muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ushbu Kodeks 76-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob beradi”;

7) 50-modda:

birinchi qismidagi “topshirish hujjatiga muvofiq” degan so‘zlar “topshirish hujjatida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “topshirish hujjatiga muvofiq” degan so‘zlar “topshirish hujjatida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismidagi “topshirish hujjatiga muvofiq” degan so‘zlar “topshirish hujjatida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 55-moddaning to‘qqizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tugatilayotgan muassasaning mablag‘lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, kreditorlar o‘z talablarining qolgan qismini ushbu muassasa mulkdori hisobidan qondirish to‘g‘risida sudga da’vo bilan murojaat qilish huquqiga egadir”;

9) 58-moddaning ikkinchi qismidagi “yoki qo‘shimcha mas’uliyatli” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

10) 63-modda chiqarib tashlansin;

11) 70, 71 va 72-moddalar chiqarib tashlansin;

12) 165-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“operativ boshqarish huquqi”;

13) 14-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14-bob. Operativ boshqarish huquqi”;

14) 176 va 177-moddalar chiqarib tashlansin;

15) 178-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat muassasasi o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi.

Davlat muassasasiga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkning egasi ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki noo‘rin foydalanilayotgan mol-mulkni olib qo‘yish hamda uni o‘zi xohlagan tarzda tasarruf etishga haqli”;

16) 179-modda chiqarib tashlansin;

17) 181-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“181-modda. Operativ boshqarish huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi

Mulkdorning qarori bilan muassasaga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni operativ boshqarish huquqi, basharti qonun hujjatlarida yoki mulkdorning qarori bilan boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, ushbu muassasada unga mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Operativ boshqarishda bo‘lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek, muassasada shartnoma bo‘yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulk ham ushbu Kodeksda, boshqa qonunchilikda mulk huquqini olish uchun belgilab qo‘yilgan tartibda muassasaning operativ boshqarishiga o‘tadi.

Mol-mulkni operativ boshqarish huquqi mulkdorning qaroriga va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra bekor qilinadi”;

18) 214-moddaning uchinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

19) 215-moddaning uchinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

20) 232-moddadagi “xo‘jalik yuritish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

21) 276-moddaning ikkinchi qismidagi “yo xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

22) 288-moddaning uchinchi qismidagi “xo‘jalik yuritishiga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

23) 328-moddadagi “xo‘jalik yuritishga yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

24) 331-moddaning birinchi qismidagi “uning xo‘jalik yuritishiga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

25) quyidagi mazmundagi 358[1]-modda bilan to‘ldirilsin:

“358[1]-modda. Korporativ shartnoma

Xo‘jalik jamiyatining ishtirokchilari yoki ayrim ishtirokchilari o‘z a’zolik huquqlarini amalga oshirish to‘g‘risida o‘zaro korporativ shartnoma tuzishga haqli. Ushbu shartnomaga muvofiq mazkur xo‘jalik jamiyatining ishtirokchilari o‘z a’zolik huquqlarini amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan o‘zini tiyish (voz kechish), shu jumladan, jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishida ovoz berish, jamiyatni boshqarish bo‘yicha harakatlarni kelishib amalga oshirish o‘z ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (aksiyalarini) ma’lum narxda yoki muayyan holatlar yuzaga kelganda qo‘lga kiritish yoki boshqa shaxsga berish yoxud qo‘lga kiritishdan yoki boshqa shaxsga berishdan o‘zini tiyish majburiyatini oladi.

Korporativ shartnoma yozma shaklda tuziladi va shartnoma taraflari uchun majburiydir.

Korporativ shartnomaga jamiyat ishtirokchilari jamiyat organlarining ko‘rsatmalariga muvofiq ovoz berishi to‘g‘risidagi va jamiyat organlarining tuzilishini hamda ularning vakolatlarini belgilash haqidagi shartlar kiritilishi mumkin emas. Mazkur shartlarga zid bo‘lgan korporativ shartnomaning shartlari o‘z-o‘zidan haqiqiy emas.

Korporativ shartnoma taraflari xo‘jalik jamiyatini korporativ shartnoma tuzilganligi to‘g‘risida shartnoma tuzilgan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay yozma shaklda xabardor qilishi shart, bunda uning mazmunini oshkor etish talab qilinmaydi. Xabarnoma taraflarning kelishuviga ko‘ra korporativ shartnoma taraflaridan biri tomonidan yuborilishi mumkin. Mazkur majburiyat bajarilmagan taqdirda, korporativ shartnoma taraflari bo‘lmagan jamiyat ishtirokchilari o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

Agar korporativ shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, korporativ shartnoma taraflaridan birining xo‘jalik jamiyati ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga (aksiyasiga) bo‘lgan huquqining bekor bo‘lishi qolgan taraflar uchun shartnomaning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi.

Korporativ shartnomada shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari va bunday majburiyatlarni

bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilishi mumkin”;

26) 459-moddaning:

to‘rtinchi qismi chiqarib tashlansin;

beshinchi qismi to‘rtinchi qism deb hisoblansin;

27) 505-moddaning:

birinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish yoxud” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

28) 549-moddaning birinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

29) 851-moddaning uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Operativ boshqaruvda bo‘lgan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilishi mumkin emas. Operativ boshqaruvda bo‘lgan mol-mulk uni operativ boshqaruvda saqlab turgan yuridik shaxs tugatilganidan yoki mol-mulkka nisbatan operativ boshqaruv huquqi bekor qilinganidan hamda u qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra mulkdorning egaligiga o‘tganidan keyingina ishonchli boshqaruvga topshirilishi mumkin”;

30) 852-modda birinchi qismining:

beshinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshisi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

31) 922-moddaning beshinchi qismidagi “xo‘jalik yuritishida yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

32) 962-modda:

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Ikki yoki undan ortiq tijoratchi yuridik shaxs tomonidan tuzilgan oddiy shirkat shartnomasi konsorsium shartnomasi hisoblanadi”;

uchinchi qismi to‘rtinchi qism deb hisoblansin;

33) quyidagi mazmundagi 962^1-modda bilan to‘ldirilsin:

“962^1-modda. Konsorsium shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari

Konsorsium shartnomasiga asosan tashkil etilgan yuridik shaxslar birlashmasi alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaydi.

Konsorsium shartnomasi sheriklari (ishtirokchilari) o‘zining mustaqil xo‘jalik faoliyatini saqlab qolgan holda boshqa konsorsiumlarning faoliyatida ishtirok etishi mumkin.

Konsorsium shartnomasi sheriklari (ishtirokchilari) o‘rtasidagi munosabatlar yozma shaklda tuziladigan konsorsium shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Konsorsium shartnomasi sheriklariga (ishtirokchilariga) tovar bozoridagi narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, shu jumladan "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga zid bo'lgan harakatlarni kelishib olish taqiqlanadi.

Konsorsium shartnomasiga asosan tashkil etilgan yuridik shaxslar birlashmasi konsorsium shartnomasida belgilangan tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kelishilgan ishlar yakuniga yetkazilganda yoki uning sheriklari (ishtirokchilari) qaroriga asosan o'z faoliyatini tugatadi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, konsorsium shartnomasiga nisbatan ushbu bob qoidalari qo'llaniladi";

34) 999-moddaning ikkinchi qismidagi "xo'jalik yuritish huquqi yoki" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-mayda qabul qilingan O'RQ-370-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 5, 128-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 12, 880, 886, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 973-modda; 2022-yil, № 3, 216, 217-moddalar; 2023-yil, № 1, 1-modda; 2024-yil, № 2, 110, 111-moddalar) quyidagi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin:

1) 26-moddaning birinchi qismi:

quyidagi mazmundagi o'n ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish";

o'n ikkinchi xatboshisi o'n uchinchi xatboshi deb hisoblansin;

2) 93-moddaning to'rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Yuridik shaxslar qo'shib yuborilgan taqdirda, ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar, bu topshirish dalolatnomalarida ko'rsatilganligidan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'i nazar, yangidan yuzaga kelgan yuridik shaxsga o'tadi";

3) 94-moddaning to'rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shib olinayotganda, qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatla-

ri, ular topshirish dalolatnomalarida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar, qo‘shib olayotgan yuridik shaxsga o‘tadi”.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi 265-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 128-modda; 1999-yil, № 5, 124-modda; 2001-yil, № 5, 89-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda; 2007-yil, № 10, 473-modda; 2010-yil, № 5, 177-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 5, 265, 267-moddalar, № 9, 589, 592-moddalar; 2020-yil, № 12, 691-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 797-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda, № 11, 1061-modda; 2023-yil, № 1, 2-modda; 2024-yil, № 5, 460-modda) 8-moddasining ikkinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi 349-I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 2, 48-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda; 2008-yil, № 12, 641-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2018-yil, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 1, 3-modda, № 5, 267-modda, № 9, 591-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 8, 787-modda; 2023-yil, № 8, 631-modda; 2024-yil, № 2, 105, 111, 115-moddalar) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 3-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

2) 3^1-moddaning uchinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 82-modda; 2003-yil, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 5, 90-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 608-modda; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 12, 472-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 4, 224-modda, № 7, 432-modda, № 12, 781-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 3, 161-modda, № 4,

199-modda, № 8, 469-modda, № 11, 792-modda; 2020-yil, № 9, 540-modda; 2021-yil, № 1, 3-modda, 4-songa ilova, № 8, 800-modda; 2022-yil, № 6, 570, 577-moddalar; 2023-yil, № 10, 795-modda, № 11, 919-modda; 2024-yil, № 7, 629-modda, № 8, 831-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 22-moddaning:

birinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 49-moddaning uchinchi qismidagi “(aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar hamda xo‘jalik shirkatlari)” degan so‘zlar “(xo‘jalik jamiyatlari hamda shirkatlari)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi 666-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 5, 90-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 432-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 800-modda; 2022-yil, № 6, 570, 577-moddalar) 15-moddasining beshinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish huquqi yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan 713-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 1, 4-modda; 2001-yil, № 5, 89-modda; 2004-yil, № 5, 90-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 6, 260-modda; 2007-yil, № 1, 3-modda, № 4, 156-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 12, 470-modda; 2011-yil, № 12/2, 365-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 10, 673, 676-moddalar; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 4, 199-modda, № 11, 792-modda; 2020-yil, № 9, 539-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 973-modda; 2022-yil, № 3; 216-modda; 2024-yil, № 8, 830, 831-moddalar) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 8-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat muassasalari va tashkilotlarining operativ boshqaruvida bo‘lgan idoraviy uy-joy fondi”;

2) 12-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat muassasalari va tashkilotlari mulkchilikning boshqa shakliga o‘tganda yoki ular qayta tashkil etilganda ularning operativ boshqaruvida bo‘lgan uy-joy fondi ushbu muassasa va tashkilotlar huquqiy vorislariga (agar ular aniqlangan bo‘lsa), boshqa yuridik shaxslarga mulk qilib yoxud ularning operativ boshqaruviga yoxud belgilangan tartibda fuqarolarning barcha uy-joy huquqlarini, shu jumladan uy-joyni xususiylashtirish huquqini saqlagan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tasarrufiga o‘tkazilishi kerak. Bunda uy-joyning yangi mulkdori, egasi ilgari tuzilgan ijara shartnomasi shartlari asosida ijaraga beruvchi bo‘lib qoladi”;

3) 35-moddaning beshinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

4) 137-moddaning beshinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin.

14-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan “O‘rmon to‘g‘risida”gi 770-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-aprelda qabul qilingan O‘RQ-475-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 423-modda; 2019-yil, № 8, 470-modda; 2020-yil, № 9, 539, 540-moddalar; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda) 8-moddasining ikkinchi qismidagi “davlat organlari, muassasalari va korxonalariga” degan so‘zlar “davlat organlari va muassasalariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

15-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi 811-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 208-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda; 2009-yil, № 4, 135-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 6, 577-modda; 2024-yil, № 8, 825-modda) 11-moddasining to‘rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu moddaning amal qilishi davlat muassasalari va tashkilotlari o‘rtasida ularga operativ boshqarish huquqi asosida biriktirilgan mol-mulkni tasarruf etishda kelib chiqadigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi”.

16-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 210-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2017-yil, № 4, 138-modda, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 592-modda; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 7, 449-modda, № 10, 597-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 569-modda; 2024-yil, № 2, 105-modda, № 5, 460-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 19-moddaning:

birinchi qismidagi “korxonalari va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismidagi “korxonalari va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 21-moddadagi “davlat korxonalariga” degan so‘zlar “davlat muassasalariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

17-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda qabul qilingan “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 1, 10-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda; 2007-yil, № 7, 325-modda, № 12, 598-modda; 2011-yil, № 12/2, 363-modda; 2012-yil, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 12, 886, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 7, 449-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 217-modda, № 4, 340-modda; 2023-yil, № 1, 1, 2-moddalar; 2024-yil, № 2, 110, 111-moddalar) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) Qonunning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”;

2) 1-moddaning matnidagi “mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarning” degan so‘zlar “mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 2-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-modda. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risidagi qonunchilik

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir”;

4) 4-modda chiqarib tashlansin;

5) 5-moddaning:

nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-modda. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning huquqiy holati”;

birinchi qismidagi “yoki qo‘shimcha mas’uliyatli” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

6) 6-moddaning uchinchi qismi chiqarib tashlansin;

7) 8-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“jamiyat muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish”;

8) 11-moddaning to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlari quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan almashtirilsin:

“Jamiyatning ta’sis hujjatlariga o‘zgartirishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi qaroriga binoan kiritiladi. Ta’sis shartnomasi qoidalari va jamiyat ustavi qoidalari muvofiq bo‘lmagan taqdirda, jamiyat ustavi qoidalari uchinchi shaxslar va jamiyat ishtirokchilari uchun ustuvor kuchga ega bo‘ladi”;

9) 12-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Ta’sis shartnomasi va unga kiritilgan o‘zgartirishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydi”;

10) 13-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilsin:

“Jamiyat ustavi va unga kiritilgan o‘zgartirishlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Jamiyat ustavi va unga kiritilgan o‘zgartirishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi. Vakolatxonalar va filiallar tashkil etilishi, shuningdek jamiyatning pochta manzili o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilgan hollarda, bunday o‘zgartirishlar yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ xabardor qilingan paytdan e’tiboran uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi”;

11) 14-modda:

quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shiladigan, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravaridan ko‘p bo‘lgan naqd pulsiz hissalar baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi va baholangan qiymatdan yuqori bo‘lishi mumkin emas”;

ikkinchi — sakkizinchi qismlari tegishincha uchinchi — to‘qqizinchi qismlar deb hisoblansin;

12) 18-moddaning yettinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan jamiyat ustavidagi o‘zgartirishlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar, shuningdek jamiyat ishtirokchilari tomonidan qo‘shimcha hissalar va uchinchi shaxslar tomonidan hissalar to‘liq miqdorda qo‘shilganligini tasdiqlovchi hujjatlar yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organga ta’sis hujjatiga o‘zgartirishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishida tasdiqlangan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay taqdim etilishi kerak. Ustavdagi mazkur o‘zgartirishlar jamiyat ishtirokchilari va uchinchi shaxslar uchun o‘zgartirishlar yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi”;

13) 19-moddaning yettinchi qismidagi “ta’sis hujjatlaridagi” degan so‘zlar “ustavdagi” degan so‘z bilan almashtirilsin;

14) 23-moddaning uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu moddada nazarda tutilgan, jamiyatning ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar, ulush sotilgan taqdirda esa, jamiyat tomonidan sotilgan ulushning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar ham yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organga jamiyat ishtirokchilari ulushlarining haqini to‘lash yakunlarini tasdiqlash va jamiyatning ta’sis hujjatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida taqdim etilishi kerak”;

15) 27-moddaning birinchi qismidagi “lekin o‘z ustav fondining (ustav kapitalining) o‘n besh foizidan kam bo‘lmagan” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

16) 34-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishda shaxsan yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etishga haqlidir. Jamiyat ishtirokchilarining vakillari o‘z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni (ishonchnomani) ko‘rsatishi kerak. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi bilan beriladi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanadi”;

17) 38-moddaning to‘rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organining hamda kollegial ijro etuvchi organining, uning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlari boshqaruv organlarining a’zolari hamda ayni shu sho‘ba, tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar jamiyat kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lishi mumkin emas”;

18) 45[1]-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan ko‘p bo‘lgan, davlat ulushi ellik foiz va undan ortiq bo‘lgan mas’uliyati cheklangan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Kredit tashkiloti bo‘lgan jamiyatda ichki audit xizmati nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tashkil etiladi. Jamiyatning kuzatuv kengashi ichki audit xizmatini tashkil etadi va uning xodimlarini tayinlaydi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir”;

19) 50-moddaning beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamiyatlar qo‘shib yuborilganda, ulardan har birining barcha huquqlari va majburiyatlari, bu topshirish dalolatnomalarida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar, qo‘shib yuborish natijasida tashkil etilgan jamiyatga o‘tadi”;

20) 54-moddaning to‘rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamiyat qayta tuzilganda, qayta tashkil etilgan jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlari, bu topshirish dalolatnomalarida ko‘rsatilganligidan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’i nazar, qayta tuzish natijasida tashkil etilgan yuridik shaxsga o‘tadi”.

18-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrda qabul qilingan “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi 312-II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 1, 12-modda; 2003-yil, № 9-10, 149-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 608-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda) 7-moddasining beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat ulushi ellik bir foizdan kamayishi mumkin bo‘lmagan korxona vakil qilingan kompaniya bo‘lishi mumkin”.

19-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘g‘risida”gi 712-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyulda qabul qilingan O‘RQ-483-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 428-modda; 2019-yil, № 11, 791-modda, № 12, 891-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 214-modda, № 4, 337-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 8, 823-modda) 16-moddasiga kuyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

ikkinchi qismdagi “unitar korxonalar” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismdagi “unitar korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

20-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 4-oktabrda qabul qilingan “Ipoteka to‘g‘risida”gi O‘RQ-58-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 535-modda; 2010-yil, № 9, 337, 340-moddalar; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2017-yil, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 10, 671-modda; 2020-yil, № 1, 3-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 10, 795-modda) 58-moddasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

uchinchi qism chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlar tegishincha uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlar deb hisoblansin.

21-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-mayda qabul qilingan “Homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-96-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 5, 218-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 5, 464-modda) 7-moddasining ikkinchi qismidagi “davlat unitar korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

22-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-155-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 4, 191-modda; 2010-yil, № 9, 337-modda; 2011-yil, № 4, 99-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2020-yil, № 11, 652-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 803-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda; 2023-yil, № 1, 2-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 3-moddaning o‘ninchi xatboshisidagi “xo‘jalik yuritish huquqi yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 6-moddaning uchinchi qismidagi “xo‘jalik yurituviga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

23-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-iyulda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-163-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyunda qabul qilingan O‘RQ-387-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 6, 227-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, №

3, 166-modda, № 4, 199-modda, № 12, 891-modda; 2020-yil, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 10, 968, 973-moddalar; 2022-yil, № 3, 217-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) 3-modda matnining:

o‘n beshinchi xatboshisidagi “va davlat korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

o‘n yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**korporativ obligatsiyalar** — aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar”;

2) 6-moddaning uchinchi qismidagi “shuningdek davlat korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin”;

3) 44-moddaning beshinchi qismi:

quyidagi mazmundagi yigirma birinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Kuzatuv kengashining aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha qarorlari”;

yigirma birinchi xatboshisi yigirma ikkinchi xatboshi deb hisoblansin;

4) 48-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“qimmatli qog‘ozlar bozorida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish, xizmatlar ko‘rsatish va (yoki) ishlarni bajarish huquqiga doir malaka guvohnomasi berilganligi to‘g‘risidagi”.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyunda qabul qilingan “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-252-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 6, 233-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda; 2020-yil, № 12, 691-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2023-yil, № 11, 923-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 4-moddaning:

ikkinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

uchinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

2) 20-moddaning ikkinchi qismidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

3) 24-modda birinchi qismining:

ikkinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin.

25-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-sentabrda qabul qilingan “Tijorat siri to‘g‘risida”gi O‘RQ-374-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 9, 245-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2024-yil, № 2, 111-modda) 5-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasining” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

26-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 5, 262-modda; 2021-yil, № 1, 16-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda; 2023-yil, № 7, 533-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda) 17-moddasi beshinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “xo‘jalik yuritish huquqining yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

27-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda, № 10, 593-modda, № 11, 652-modda, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modda, № 4, 294-modda, 4-songa ilova, № 8, 800-modda, № 9, 901-modda, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modda; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar, № 6, 570-modda, № 7, 664, 666-moddalar, № 12, 1190-modda; 2023-yil, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modda, №12, 1011-modda; 2024-yil, № 2, 106, 110, 111-moddalar, № 5, 458, 459-moddalar, № 8, 822, 831-moddalar) 306-moddasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) to‘rtinchi qism chiqarib tashlansin;

2) beshinchi — qirqinchi qismlar tegishincha to‘rtinchi — o‘ttiz to‘qqizinchi qismlar deb hisoblansin.

28-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘RQ-600-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 7, 661-modda, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 76-modda, № 3, 214, 216-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 463, 464, 467-moddalar, № 12, 1186-modda; 2023-yil, № 2, 103-modda, № 3, 186-modda, № 4, 265, 269-moddalar, № 6, 444, 445-moddalar, № 7, 538-modda, № 9, 710-modda; 2024-yil, №

1, 5, 6, 7-moddalar, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-moddalar, № 8, 819, 823, 831-moddalar) 15-moddasining ikkinchi qismidagi “davlat korxonalari negizida tuzilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

29-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda qabul qilingan “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 2, 106-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 2, 105-modda) 24-moddasining birinchi qismidagi “davlat unitar korxonasi” degan so‘zlar “davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

30-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 9, 538-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 1, 101-modda) 66-moddasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

birinchi qismidagi “xo‘jalik yurituvidagi yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “yoki xo‘jalik yurituvida” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

31-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 10, 595-modda; 2021-yil, № 4, 287-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 216-modda, № 5, 464-modda, № 6, 570-modda, 10-songa ilova; 2023-yil, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda) 81-moddasi uchinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

32-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan O‘RQ-676-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 2, 145-modda; 2022-yil, № 6, 570-modda, № 11, 1061-modda; 2023-yil, № 10, 795-modda, № 11, 923-modda, № 12; 1010-modda; 2024-yil, № 8, 830, 831-moddalar) 83-moddasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

uchinchi qism chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi va beshinchi qismlar tegishincha uchinchi va to‘rtinchi qismlar deb hisoblansin.

33-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevralda qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-677-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 2, 146-modda; 2022-yil, № 3, 216, 217-moddalar, № 4, 340-modda; 2023-yil, № 1, 2-modda, № 11, 923-modda; 2024-yil, № 2, 105-modda) 35-moddasi birinchi qismining yettinchi xatboshisidagi “va davlat unitar korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

34-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 289-modda; 2024-yil, № 2, 111-modda) 19-moddasi birinchi qismining 2-bandiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar tegishincha ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin.

35-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-avgustda qabul qilingan “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-710-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 8, 802-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 8-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

2) 13-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “korxonalari” degan so‘z chiqarib tashlansin;

3) 24-modda:

birinchi qismidagi “xo‘jalik yurituvida” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “xo‘jalik yurituvida” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

36-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-aprelda qabul qilingan “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-763-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 4, 338-modda; 2023-yil, № 11, 923-modda, 2024-yil, № 1, 5-modda, № 8, 823-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 9-modda birinchi qismining:

to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

beshinchi xatboshisi to‘rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

2) 96-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “xo‘jalik jamiyatlari hamda mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli

jamiyatlarning” degan so‘zlar “xo‘jalik jamiyatlarining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

37-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrda qabul qilingan “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘RQ-803-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 11, 1064-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 10-modda:

birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi — o‘n beshinchi xatboshilari tegishincha sakkizinchi — o‘n to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) 36-moddaning nomi, birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36-modda. Binolar va inshootlarga bo‘lgan operativ boshqarish huquqini belgilovchi hujjatlar

Binolar va inshootlarga bo‘lgan operativ boshqarish huquqini belgilovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

davlat organlarining davlat tashkilotlarini tashkil etish hamda ularga binolar va inshootlarni operativ boshqarish huquqi asosida berish to‘g‘risidagi qarorlari”.

38-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martda qabul qilingan “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-821-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 3, 183-modda; 2024-yil, № 2, 107-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 3-moddaning:

ikkinchi xatboshisidagi “shuningdek davlat unitar korxonasi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalariga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

yettinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

2) 16-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat unitar korxonasi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 21-modda birinchi qismining:

sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ko‘chmas mulkni bir davlat muassasasidan boshqa davlat muassasasiga o‘tkazish tartibini belgilaydi”;

o‘n ikkinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalarini va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

o‘n uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat muassasasi va davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni o‘zgartirish tartibini belgilaydi”;

4) 22-moddaning:

ikkinchi qismi:

oltinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalariga va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

o‘n beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tegishli davlat organlari bilan kelishuvga ko‘ra davlat ko‘chmas mulk obyektlarini (bundan xususiylashtirilmaydigan obyektlar mustasno), idoraviy mansubligidan qat’i nazar, operativ boshqaruv huquqi asosida bir davlat muassasasidan boshqa davlat muassasasiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qiladi”;

o‘n oltinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasini yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

beshinchi qismidagi “davlat unitar korxonalari va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

5) 24-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalarining va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

6) 25-modda birinchi qismining:

uchinchi xatboshisidagi “tashkil etilgan yoki sotib olingan davlat unitar korxonalarida, davlat muassasalarida” degan so‘zlar “tashkil etilgan davlat muassasalarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalariga va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

7) 26-moddaning beshinchi qismidagi “davlat unitar korxonalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

8) 28-moddaning uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mulkiy majmualar, ko‘chmas mulkning alohida qismlari, davlat ulushi, mutlaq huquqlar va boshqa davlat mulki davlat mulkini ishonchli boshqarish obyekti bo‘lishi mumkin”;

9) 35-moddaning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35-modda. Davlat muassasasini o‘zgartirish”;

birinchi qismidagi “davlat unitar korxonasi yoki davlat muassasasi” degan so‘zlar “davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “davlat unitar korxonasining yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi — yettinchi qismlari tegishincha uchinchi — oltinchi qismlar deb hisoblansin;

to‘rtinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasi yoki davlat muassasasi” degan so‘zlar “Davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat muassasasini xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran va mazkur jarayon yakunlanguniga qadar ushbu muassasaga operativ boshqaruv huquqi asosida biriktirilgan davlat mulkini sotishga, hisobdan chiqarishga, garovga berishga, yuridik shaxslarning ustav fondlariga (ustav kapitallariga) kiritishga yoki uni boshqacha tarzda tasarruf etishga yoxud boshqacha usullar bilan davlat mulkiga nisbatan majburiyatlarni yuzaga keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi (bundan joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq hollar mustasno)”;

oltinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasi yoki davlat muassasasi” degan so‘zlar “Davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 38-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirish ularning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi”;

11) 42-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

12) 47-modda birinchi qismining:

uchinchi xatboshisi chiqarib tashlasin;

to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari tegishincha uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

to‘rtinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalariga va” degan so‘zlar chiqarib tashlasin;

13) 48-modda to‘rtinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalari va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

39-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-aprelda qabul qilingan “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi O‘RQ-836-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 4, 272-modda, № 11, 923-modda) 9-moddasi ikkinchi qismining yigirma uchinchi xatboshisidagi “davlat korxonalari hamda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

40-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 7, 533-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 4-moddaning ikkinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasi yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) 9-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “unitar korxonalari yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

41-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 1, 9-modda) 35-moddasining birinchi qismidagi “xo‘jalik yuritish huquqi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

42-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevralda qabul qilingan “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-907-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 2, 107-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 10-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat muassasalari”;

2) 15-modda:

to‘rtinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalarini” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

sakkizinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalari va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 16-modda:

yettinchi qismidagi “davlat unitar korxonasini va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

sakkizinchi qismining oltinchi xatboshisidagi “shuningdek davlat unitar korxonasining” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

4) 19-modda:

birinchi qismining:

yettinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasini yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasini yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismidagi “davlat unitar korxonasining” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

5) 5-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-bob. Davlat muassasasini xususiylashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari”;

6) 26-moddaning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“26-modda. Davlat muassasasini xususiylashtirishning umumiy tartibi”;

birinchi qismining:

birinchi xatboshisidagi “Davlat unitar korxonasini va davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonasini yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasi va davlat muassasasi” degan so‘zlar “Davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasi yoki davlat muassasasi” degan so‘zlar “Davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasi yoki davlat muassasasi” degan so‘zlar “Davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

yettinchi qismidagi “davlat unitar korxonasining yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

sakkizinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘qqizinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat muassasasini keyinchalik xususiylashtirish sharti bilan xo‘jalik jamiyatiga ijaraga berish vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda davlat muassasasining davlat mulkini xususiylashtirish jarayonidagi kelgusi faoliyatini nazorat qilish maqsadida cheklangan muhitda (qamrov hududi, ijara muddati, faoliyat sohasi, xodimlar soni, ishlab chiqarish (xizmatlar) hajmi va boshqalar) sinovdan o‘tkazish uchun “tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimi joriy etilishi mumkin”;

7) 27-moddaning:

nomidagi “Davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “Davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini” degan so‘zlar “Davlat muassasasini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “davlat unitar korxonasini yoki” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

8) 30-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalarining” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

9) 32-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “davlat unitar korxonalarini va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

43-modda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar:

unitar korxona va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning tashkiliy-huquqiy shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish yuzasidan ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy ichida zarur choralar ko‘rishni;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

44-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

45-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 7-fevral,
O‘RQ-1025-son

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Hilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Jamilaxon ASQAROVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2025.